



XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

XORAZM VILOYATINING DEMOGRAFIK HOLATI

*2023- yil
yanvar- sentabr*



XORAZM VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

2023- yil 1-oktabr holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Xorazm viloyatining doimiy aholisi soni 2023- yilning 1- oktabr holatiga **1983,7** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **25,6** ming kishiga yoki **1,3** %ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **656,6** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **33,1** %), qishloq aholisi soni **1 327,1** ming kishi (**66,9** %)ni tashkil etdi.

Doimiy aholi soni

1 983,7 ming kishi

Tabiiy o'sish

+27,0 ming kishi

Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi


Shahar

**33,1%**

Qishloq

**66,9%**

Aholining tabiiy harakati, ming kishi



Urganch sh. Xiva sh. Bog'ot Gurlan Qo'shko'pir Urganch Hazorasp Tuproqqal'a Xonqa Xiva Shovot Yangiariq Yangibozor



Tug'ilganlar soni




Vafot etganlar soni



Aholining tabiiy o'sishi


Xorazm viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar

2023- yil yanvar-sentabr




Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni

2023- yil 1- oktabr holatiga




2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, viloyat doimiy aholisi sonining **31,1 %**i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **58,6 %**i mehnatga layoqatli yoshdagilar va **10,3 %**i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi
2023- yil 1-oktabr holatiga

Doimiy aholi sonining shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi
1- oktabr holatiga, ming kishi

	2022- yil	2023- yil	O'sish sur'ati, % da
Viloyat bo'yicha	1947,1	1983,7	101,9
<i>shaharlar :</i>			
Urganch sh.	149,0	152,4	102,3
Xiva sh.	96,3	98,3	102,1
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	171,6	175,0	102,0
Gurlan	153,7	156,4	101,8
Qo'shko'pir	177,8	181,0	101,8
Urganch	208,2	212,2	101,9
Hazorasp	201,1	204,9	101,9
Tuproqqal'a	57,6	58,9	102,3
Xonqa	193,9	197,3	101,8
Xiva	151,1	153,5	101,6
Shovot	176,2	179,3	101,8
Yangiariq	120,2	122,5	101,9
Yangibozor	90,4	92,0	101,8

Xorazm viloyati bo'yicha aholi zichligi


2023- yil 1- oktabr holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi



Viloyatda 2023- yil 1- oktabr holatiga 1 kvadrat kilometrda o'rtacha **328** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **6** kishiga ortgan (2022- yilda 1 kv.km.ga **322** kishi).

Shahar va tumanlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichligining eng yuqori ko'rsatkichi Urganch shahrida **5261** kishi, Xiva shahrida **2884** kishi, Urganch tumanida **476** kishi, Hazorasp tumanida **457** kishi, Xonqa tumanida **456** kishini tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Tuproqqal'a tumanida **37** kishi, Yangibozor tumanida **268** kishi, Yangiariq tumanida **304** kishi, Qo'shko'pir tumanida **336** kishini tashkil etgan.

QAYD ETILGAN TUG‘ILISHLAR



Shahar va tumanlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsiyenti

Hazorasp	3834	25,2 ‰
Urganch sh.	3549	31,4 ‰
Urganch	3350	21,3 ‰
Xonqa	3193	21,8 ‰
Bogot	3179	24,5 ‰
Shovot	2974	22,3 ‰
Qo‘shko‘pir	2931	21,8 ‰
Gurlan	2601	22,4 ‰
Xiva	2152	18,8 ‰
Yangiariq	1982	21,8 ‰
Xiva sh.	1657	22,7 ‰
Yangibozor	1489	21,8 ‰
Tuproqqal‘a	967	22,1 ‰

Tug‘ilganlarning taqsimlanishi

Yanvar -mart

O‘g‘il bolalar **4 893** Qiz bolalar **4 761**



Yanvar -iyun

O‘g‘il bolalar **9 734** Qiz bolalar **9 111**



Yanvar -sentabr

O‘g‘il bolalar **17 587** Qiz bolalar **16 271**



Yanvar- sentabr

Shahar aholisi **12 162** Qishloq aholisi **21 696**




2023- yil yanvar-sentabr oylarida **33,9** ming nafar bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti **23,0** promilleni tashkil etdi hamda bu ko‘rsatkich 2022- yilga nisbatan **1,5** promillega oshganligi kuzatildi (2022- yil yanvar-sentabrida **21,5** promilleni tashkil etgan).

VAFOT ETGANLAR



Shahar va tumanlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti



Vafot etganlarning taqsimlanishi

Yanvar-mart



Yanvar-iyun



Yanvar-sentabr




Yanvar-sentabr



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida **6,9** mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga o'lim koeffitsiyenti **4,6** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan **0,3** promillega kamayganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar-sentabr oylarida **4,9** promille bo'lgan).

QAYD ETILGAN NIKOHLAR



Nikohlarning taqsimlanishi


Yanvar- mart




Yanvar- iyun



Yanvar-sentabr




Shahar va tumanlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida **10,3** mingta nikoh qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **7,0** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan **0,6** promillega kamayganligi kuzatildi (2022-yilning yanvar - sentabr oylarida **7,6** promille bo'lgan).

NIKOHDAN AJRALISHLAR



Nikohdan ajralishlarning taqsimlanishi

Yanvar- mart



Yanvar- iyun




Yanvar- sentabr



Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti

2023- yil yanvar-sentabr, birlik



2023- yil yanvar-sentabr oylarida **1,9** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,3** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan **0,3** promillega oshganligi kuzatildi (2022- yil yanvar-sentabr oylarida **1,0** promille bo'lgan).

AHOLI MIGRATSIYASI

(Doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar)


2023- yil yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar jami soni 5 901 kishini tashkil etdi.

Doimiy yashash maqsadida ko'chib ketganlar soni jami 7 271 kishini, migratsiya saldosini minus 1 370 kishini tashkil etdi. (2022- yil yanvar-sentabr oylarida minus 1089 kishini tashkil etgan).



Shahar va tumanlar bo'yicha ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni
kishi

	2022 - yil yanvar- sentabr			2023- yil yanvar- sentabr		
	Ko'chib kelganlar	Migratsiya saldosi		Ko'chib kelganlar	Migratsiya saldosi	
		Ko'chib ketganlar			Ko'chib ketganlar	
Viloyat bo'yicha:	5168	6257	-1089	5901	7271	-1370
<i>shaharlar:</i>						
Urganch sh.	1409	1392	17	1631	1879	-248
Xiva sh.	275	363	-88	381	408	-27
<i>tumanlar:</i>			0			
Bog'ot	132	235	-103	144	248	-104
Gurlan	135	270	-135	129	362	-233
Qo'shko'pir	203	449	-246	188	381	-193
Urganch	1307	946	361	1587	1215	372
Hazorasp	182	731	-549	213	663	-450
Tuproqqal'a	496	232	264	504	291	213
Xonqa	144	405	-261	153	435	-282
Xiva	282	455	-173	363	518	-155
Shovot	184	338	-154	190	397	-207
Yangiariq	245	240	5	234	257	-23
Yangibozor	174	201	-27	184	217	-33

KO'CHIB KELGANLAR




Ko'chib kelganlarning taqsimlanishi



Ko'chib kelganlar soni va koeffitsiyenti


2023- yil yanvar-sentabr, kishi

Urganch sh.	1631	14,4 %
Urganch	1587	10,1 %
Tuproqqal'a	504	11,5 %
Xiva sh.	381	5,2 %
Xiva	363	3,2 %
Yangiariq	234	2,6 %
Hazorasp	213	1,4 %
Shovot	190	1,4 %
Qo'shko'pir	188	1,4 %
Yangibozor	184	2,7 %
Xonqa	153	1,0 %
Bog'ot	144	1,1 %
Gurlan	129	1,1 %





2023- yilning yanvar-sentabr oylarida **5,9** mingta ko'chib kelganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib kelish koeffitsiyenti **4,0** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan **0,4** promillega oshganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar- sentabr oylarida **3,6** promille bo'lgan).

KO'CHIB KETGANLAR




Ko'chib ketganlarning taqsimlanishi



Ko'chib ketganlar soni va koeffitsiyenti

2023- yil yanvar- sentabr, kishi



2023- yilning yanvar- sentabr oylarida **7,3** mingta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib ketish koeffitsiyenti **4,9** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan **0,6** promillega ko'payganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar- sentabr oylarida **4,3** promille bo'lgan).

Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayiriladi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasalliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Ko‘chib kelganlar soni – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib kelish.

Ko‘chib ketganlar soni – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib ketish.

Aholining migratsion o‘sishi (farqi) – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

Demografiya va mehnat statistikasi bo‘limi

Tel: (62) 224-65-08